

1920-30 YILLARDA FARG‘ONA VODIYSIDA AHOLINI KO‘CHIRISH SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH

Yusupova Lutfiya Ravshanovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti,

“Tarix” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi XIX - asrning 1920-30-yillarda O‘zbekistonda xususan Farg‘ona vodiysida amalga oshirilgan ko‘chirish siyosatini ilmiy jihatdan o‘rganildi. Farg‘ona vodiysida amalga oshirilgan ko‘chirish siyosatining mehanizmlari, kelib chiqishi, sabablari, mazmun mohiyati, amalga oshirilishi va ijtimoiy oqibatlarini ochib berildi.

Tezisdagi sovetlarning aholini o‘zlashtirilmagan hududlarga ixtiyoriy – majburiy ko‘chirish siyosati, aholining ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy – huquqiy ahvoli, ularning mehnat faoliyati qanday kechganligi aniqlandi. Aholini ko‘chirish siyosatiga asos bo‘lgan omillar, shart – sharoitlar, dehqonchilik madaniyatining o‘ziga hos xususiyatlari, aholining demografik tarkibi va bu jarayonning sovet hukumatining amaldagi rejalari bilan tarkibiy bog‘liqlikda kechganligiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Sovet Ittifoqi, ko‘chirish siyosati, Farg‘ona vodiysi, kollektivlashtirish, quloqlar, sanoatlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, demografik rivojlanish, huquqiy asoslar.

XIX - asrning 20-30-yillarda O‘zbekistonda xususan Farg‘ona vodiysida amalga oshirilgan ko‘chirish siyosatini dastlab rayonlar ichkarisida amalga oshirildi. O‘zbekistonda sovetlarning aholini ko‘chirish siyosati Yer ishlari xalq komissariati tomonidan ixtiyoriy (ayrim hollarda “Ixtiyoriy – majburiy”) asosda o‘tkazilgan. Ichki hududlardan aholini ko‘chirishlar asosan Farg‘ona, Samarqand va Toshkentda boshlandi. O‘zbekistonda aholini ko‘chirish siyosati o‘sha davrda qishloqda yuz bergan paxta mustaqilligi uchun kurash, yer - suv islohoti, kollektivlashtirish va unga bog‘liq surgunlar bilan bir vaqtda amalga oshirilgan edi.

Ko‘chirish siyosatida sovetlarning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligida yangi yerlarni o‘zlashtirish va paxtachilikni rivojlantirish bo‘lgan. Aholini ko‘chirish

siyosati 1926 – yildan boshlanadi. Bu haqida “Birinci bech yillikda ko‘chirish tadbirlarini amalga oshirishning bajarilishi haqida hisobot”da ko‘rsatilgan edi.

O‘zbekistonda aholini ko‘chirish siyosati asosan aholi zichligi yuqori, yer yetishmovchiligi muammosi mavjud bo‘lgan hududlar orasida Farg‘ona birinchi o‘rinda turgan. Bundan tashqari Farg‘ona vodiysida ijtimoiy muammolar ham ko‘p, demografik keskinlikni yumshatmasdan ularni hal qilish, iqtisodiy farovonlikka erishish qiyin edi. Shu sababli ham aholini ko‘chirish siyosatiga ko‘proq Farg‘ona vodiysi aholisi tortildi. Ko‘chirish siyosatida Farg‘ona vodiysi aholisining yana bir alohida va muhim o‘rni bor edi, bu uning paxta mustaqilligini ta‘minlash uchun zarur dehqonchilik, jumladan, paxtachilikda orttirgan katta tajribasi bilan bog‘liq edi. Azaldan dehqonchilik madaniyatini puxta egallagan Farg‘ona vodiysi aholisi ko‘chirish fondlaridagi qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan tub aholiga bu sohada ustoz bo‘lishlari kerak edi.

O‘zbek qishlog‘i o‘ziga xos mayda hamda tarqoq yer uchastkalariga bo‘linganligi bilan ajralib turadi. Mayda dehqon xo‘jaliklari, asosan, azaldan sug‘oriladigan kichik hududlarda, ayniqsa, Farg‘ona vodiysida, Toshkent, Zarafshon va Xorazm vohalarida to‘plangan edi. Agrotexnikaning o‘ta oddiyligi, sug‘orish tizimining tang holatdaligi, mablag‘larning kamligi, yangi yerlarni jadal o‘zlashtirish imkonini bermagan edi. Bularning hammasi yer masalasining keskinlashuviga olib keldi. Sovet hukumati aholini ko‘chirish siyosati orqali ushbu muammolarni ham hal qilishi kerak edi.

Sovet Ittifoqida “Paxta mustaqilligi uchun kurash” shiori ostida chetdan keltiriladigan paxtaga bo‘lgan qaramlikka barham berish maqsadida qo‘shimcha yerlarni o‘zlashtirishga katta e‘tibor qaratildi. Aholi zich hududlardagi xo‘jaliklar yangi o‘zlashtirilayotgan yerlarga ko‘chirildi. Bu siyosat yuqorida aytilganidek rasman ixtiyoriy, rejali va tartibli ko‘chirish deb nomlandi. Va shu bilan birgalikda ichki mintaqaviy hususiyatga ega bo‘lgan. O‘zSSR MIK va XKS ning 1927 – yil 21 – fevraldagi “O‘zSSR doxilida rejaviy muhojirot ishlarining ochilishi tog‘risida”gi dekretiga asosan yerga muhtoj dehqonlarga yer ajratib berish bahonasida O‘zbekistonning ichki hududlariga ixtiyoriy majburiy ko‘chirishga qonuniy tus berildi. “Ixtiyoriylik” ko‘p hollarda nomigagina bo‘lishiga qaramay, bu ko‘chirishni keyingi yillardagi majburiy ko‘chirishlar bilan aslo adashtirib bo‘lmaydi. Chunki bu ko‘chirish yer ishlari xalq komissarligi tomonidan o‘zlashtirilmagan yerlarni xo‘jalik

hisobiga kiritish maqsadida davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan.

Shunga qaramay ichki rejali ko‘chirish siyosatining moliyaviy ta‘minoti yetarli darajada bo‘lmadi. Shuningdek, ko‘chib borganlar o‘rtasida yangi joylarni o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish ommaviy tus olgan. Natijada Sovetlarning ixtiyoriy rejali ko‘chirish siyosati hech qanday samara bermadi. Ammo bu tajriba issiz yo‘qolib ketmadi.

Kom partiyaning yoppasiga kollektivlashtirishni e‘lon qilishi arafasida, ixtiyoriy majburiy ko‘chirish siyosati zahirida P.M Polyan ta‘kilaganidek: “Majburiy ko‘chirish va majburiy mehnatga jalb qilish g‘oyasi eshik qoqmoqda edi.

Farg‘ona vodiysi aholisining o‘zlashtirilmagan yangi yerlarga ko‘chirishlar ikkinchi bosqichda amalga oshirilgan bo‘lib, birinchi yo‘nalishda aholini Farg‘ona oblastlarining ichidagi o‘zlashtirilmagan aholi siyrak yerlarga ko‘chirish, ikkinchi bosqichda esa aholi Farg‘ona vodiysidan tashqariga ko‘chirilgan(Mirzacho‘lni o‘zlashtirish uchun). Shunday qilib ko‘chirish siyosati dastlab rayonlar ichkarisida amalga oshirildi.

1925 – yil fevralda O‘zbekiston Kommunistik partiyasining birinchi ta‘sis sezida SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining raisi M.I Kalining shunday degandi: “Farg‘ona dehqonlari oddiy dehqonlar emas, ular zimmasiga ittifoq tomonidan aholi uchun eng zarur bo‘lgan xomashyoni yetishtirish vazifasi yuklangan. Ittifoqdagi barcha xalqlar paxta tolasidan to‘qilgan kiyim kiyadi. Demak, paxtakor o‘zi uchungina emas, balki butun ittifoq uchun ishlaydi. Farg‘ona dehqonining ahamiyati bugungi kunda frontdagi qizil askarniki bilan tengdir”.

Andijon rayonidagi zichlik yuqori bo‘lgan qishloq sovetlaridagi 630 xo‘jalikning 450 tasi huddi shu okrug, huddi shu rayondagi Madiyorchek Dalvarzin yerlarini o‘zlashtirish uchun 170 tasi Qoraqalpoq, Nayman, Begovotga yerlarni o‘zlashtirish uchun Jalaquduqdan 230 xo‘jalik, Marhamatdan 340 xo‘jalik, ja‘mi 570 xo‘jalik. Buloqboshi arig‘i bo‘ylab yerlarni o‘zlashtirish uchun, Norin rayonidan 75 xo‘jalik shu rayondagi Qag‘ay hududiga, Shahrihondan 565 xo‘jalik, Namangandan 560 xo‘jalik, ja‘mi 1125 xo‘jalik. Baliqchi rayonidan Bo‘z rayoniga hammasi bo‘lib 2400 xo‘jalik ko‘chirilgan.

O‘zbekistonda yangi yerlarni o‘zlashtirish va aholini ko‘chirish tadbirlari asosan paxtachilikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgani, aholini ko‘chirish

jarayonlarida Farg‘ona vodiysi viloyatlari asosiy ob‘yekt vazifasini bajargani dalillangan. Ko‘chirish siyosatining dastlabki davrida aholini yangi o‘zlashtirilgan yerlarga ko‘chirish “Ixtiyoriy – majburiy” usullarga asoslangani, bu davrda ko‘chirilgan aholini uy – joy bilan ta‘minlash, ularga ijtimoiy – maishiy xizmat ko‘rsatish, imtiyozli kreditlar ajratish kabi zarur sharoitlar yaratilmaganligi sababli ko‘chirish tadbirlari samarasiz bo‘lganligi asoslangan;

Yangi o‘zlashtirilgan hududlarga Farg‘ona vodiysidan ko‘chirilgan aholining bu yerlarda qishloq xo‘jaligini yo‘lga qo‘yish, hususan paxtachilikni rivojlantirishda yetakchi ahamiyatga ega bo‘lganligi, bu borada Respublikaning boshqa hududlaridan kelgan aholiga katta tajriba o‘rgatganligi dalillangan.

XX asrning 20-30 yillarida Farg‘ona vodiysidagi ichki ko‘chirishlar Sovet Ittifoqining umumiy siyosati, jumladan, agrar islohotlar va sanoatlashtirishning bir qismi sifatida amalga oshirilgan. Bu davrda Farg‘ona vodiysi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy jihatdan ham sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Ichki ko‘chirishlar o‘zining tabiati va maqsadi bo‘yicha turli xil bo‘ldi, lekin ular umumiy sovet siyosati doirasida amalga oshirildi.

1926 – yil 1 – fevralda yangi yerlarni o‘zlashtirish bo‘yicha Farg‘ona oblast kichik komissiyasi tomonidan barcha rayonlarga berilgan buyruqda sug‘orish tarmoqlari yangidan barpo etilayotgan hamda eski tarmoqlar tiklanayotgan yerlarga yersiz va kam yerli dehqonlar ko‘chirilishi kerakligi, yangi vazifa qanday bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z muddatida bajarilishi shartligi hamda bu narsa har bir rayon komissiya hodimidan ushbu vazifani o‘z vaqtida to‘la holatda bajarish uchun butun kuch – quvvatini sarflashni talab qilishi, ish surati maksimal darajada bo‘lishi kerakligi, ishga yaroqli bo‘lgan har bir mehnatkashlarning safarbar etilishi zarurligi va agar barcha kuchlar baravariga harakat qilsa bajarilishi mumkin bo‘lmagan vazifalarning bo‘lmasligi, muhlat qanchalik qisqa bo‘lsa ham qat’iyatlilik, tirishqoqlilik, topqirlik shunchalik yuqori bo‘lishi kerakligi, sug‘orish tarmoqlari yangi barpo etilayotgan va eskilari tiklanayotgan yerlarga 1926 – yil bahorida ekin ekilishi, yer – suv islohotining shon – sharaf bilan yakunlanmog‘i shartligi to‘g‘risida gapiriladi.

Farg‘ona vodiysidan aholini respublikaning boshqa rayonlariga ko‘chirish Sovetlar davrida amalga oshirilgan turli siyosiy va ijtimoiy tadbirlarning bir qismi edi. 1920–30 yillarda amalga oshirilgan ko‘chirishlar turli maqsadlar bilan, jumladan, sanoatlashuv, kollektivlashtirish, va etnik balansni ta‘minlash maqsadida bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan hududlaridan biri bo‘lib, ayniqsa paxta yetishtirish, qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida muhim rol o‘ynagan. Shu sababli, bu hududdan aholini boshqa rayonlarga ko‘chirish Sovet Ittifoqining o‘z strategik maqsadlariga xizmat qilgan. Sovet hukumatining kollektivlashtirish siyosati va paxta sanoatini rivojlantirish maqsadida, Farg‘ona vodiysi markaziy qishloq xo‘jaligi faoliyatining asosiy hududi bo‘lgan. Farg‘ona vodiysidan aholi boshqa rayonlarga ko‘chirilgan.

Sovetlarning O‘zbekistonda aholini ko‘chirish siyosati aholisi zichligi yuqori bo‘lgan hududlardan yangi yerlarga aholini ko‘chirishni, ularning mehnati hisobiga paxta maydonlarini kengaytirishni rejalashtirdi.

Aholisi zichligi yuqori va shu bilan birgalikda yer yetishmovchiligi muammosi hamda demografik muammolari ham talaygina bo‘lgan Farg‘ona vodiysi ayni shu muammolar sababli ko‘chirish siyosatiga ko‘proq vodiy aholisi tortildi. Azaldan ma‘lumki, Farg‘ona vodiysi aholisi dehqonchilikda yuqori tajribaga ega bo‘lganligi sovet hukumatining paxta mustaqilligiga erishish yo‘lida olib borgan ushbu siyosatini amalga oshirishda qo‘l keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Шамсудинов.Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоклаштириш сиесати ва унинг фожийали окибатлари – Тошкент: Шарк, 2001. – Б.105 – 106.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент: Шарк, 2000. –6.327
3. Расулоа Б. Махмуджонович Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатагонлар ва сургун қилинган деҳқонлар ахволи(1929-1959 й.й) Т.ф. доктори Диц (Doctor of science)152-153-бетлар
4. Правда Востока. 1925. 11-февралья
5. Ботирова Б.Н Ўзбекистонда ўтказилган советларнинг кўчириш сиёсати(1926–1941–йиллар) Тарих фан. Номз..дисс – Тошкент, 2010–6.7
6. Sattarov Akram Madaminovich O‘zbekistonda aholini ko‘chirish siyosati(Farg‘ona vodiysi viloyatlari misolida, 1946-1991-yillar) t.f.n dis.Avtoreferati. Farg‘ona 2003. 9-10-betlar

7. Джамалов О.Б. Социально – экономические предпосылки сплошной коллективизации сельского хозяйства в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат, 1950. - с.97
8. Аширбоева З.Қ. XIX аср охири – XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши: Тарих фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2008
9. O‘zbekiston Milliy Arxivi. 95-fond(O‘zSSR Ishchi - dehqonlar inspeksiyasi Xalq Komissarligi fondi), 2-ro‘yxat, 2606-ishlar;
10. Andijon viloyat davlat arxivi, 189-fond(Andijon okrug Yer bo‘limi fondi), 1-ro‘yxat
11. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 12-fond(Farg‘ona oblast Yer bo‘limi fondi), 1-ro‘yxat